



NOTIQLIK SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI VA ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYADAGI AHAMIYATI

Soatova Aziza Sadridin qizi

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi talabasi

azizasoaatova011@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada notiqlik san'atining tarixiy taraqqiyoti, uning Sharq va G'arb sivilizatsiyalaridagi shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, Qadimgi Yunonistonda ritorika fanining vujudga kelishi, Gorgiy, Lisiy va Demosfen kabi mashhur notiqning faoliyati hamda notiqlik nazariyasining shakllanishidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning nutq madaniyati, so'z odobi hamda notiqlikka oid qarashlari tahlil etiladi. Maqolada Sharq va G'arb notiqlik maktablarining o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy asosda ko'rib chiqilib, tarixiy notiqlik an'analarning zamonaviy kommunikatsiya jarayonlaridagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Notiqlik san'ati, ritorika, Sharq notiqlik maktabi, G'arb ritorika maktabi, Demosfen, Gorgiy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, nutq madaniyati, so'z odobi, ta'sirchan nutq, notiqlik tarixi.

Annotation: This article analyzes the historical development of the art of public speaking and its formation and evolution within Eastern and Western civilizations. In particular, it examines the emergence of rhetoric as a discipline in Ancient Greece, the activities of renowned orators such as Gorgias, Lysias, and



Demosthenes, and their contributions to the development of rhetorical theory. The article also explores the views of Eastern thinkers—including Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni, Yusuf Khos Hajib, Kaykovus, Alisher Navoi, and other scholars—regarding speech culture, verbal etiquette, and oratory. Furthermore, it provides a comparative analysis of the similarities and differences between Eastern and Western schools of rhetoric and reveals the significance of historical rhetorical traditions in contemporary communication processes.

Keywords: Art of public speaking, rhetoric, Eastern school of oratory, Western school of rhetoric, Demosthenes, Gorgias, Abu Nasr al-Farabi, Yusuf Khos Hajib, Alisher Navoi, speech culture, verbal etiquette, persuasive speech, history of oratory.

Аннотация: В данной статье анализируются историческое развитие ораторского искусства, а также этапы его формирования и становления в восточной и западной цивилизациях. В частности, рассматриваются возникновение риторики как науки в Древней Греции, деятельность выдающихся ораторов, таких как Горгий, Лисий и Демосфен, а также их роль в формировании теории ораторского искусства. Кроме того, анализируются взгляды восточных мыслителей — Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Юсуфа Хос Ходжиба, Кайковуса, Алишера Навои и других ученых — на культуру речи, речевой этикет и ораторское мастерство. В статье также в сравнительном аспекте рассматриваются сходства и различия восточной и западной школ риторики и раскрывается значение исторических ораторских традиций в современных коммуникационных процессах.

Ключевые слова: Ораторское искусство, риторика, восточная школа ораторского искусства, западная школа риторики, Демосфен, Горгий, Абу



Наср Фараби, Юсуф Хос Ходжиб, Алишер Навои, культура речи, речевой этикет, убедительная речь, история ораторского искусства.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida soʻz va nutq alohida oʻrin tutib kelgan. Kishilar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, muayyan gʻoya va qarashlarni targʻib etish, jamiyatni boshqarish hamda insonlarni ezgu maqsadlar sari safarbar etishda notiqlik sanʼati muhim vosita vazifasini bajargan. Shu sababli notiqlik insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida shakllangan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, notiqlik sanʼati jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlangan. Ayniqsa, Qadimgi Yunonistonda demokratik boshqaruv tizimining shakllanishi natijasida xalq majlislari va sud jarayonlarida soʻzlash madaniyatiga boʻlgan ehtiyoj ortib, ritorika mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida vujudga kelgan. Gorgiy, Lisiy, Isokrat va Demosfen kabi mashhur notiqlar ushbu sanʼatning nazariy hamda amaliy asoslarini takomillashtirib, uning keyingi taraqqiyotiga katta hissa qoʻshganlar. Notiqlik sanʼati faqat Gʻarb sivilizatsiyasiga xos hodisa boʻlib qolmagan. Sharq xalqlari madaniyatida ham soʻz odobi, nutq madaniyati va taʼsirchan muloqot masalalariga qadimdan katta eʼtibor berilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar oʻz asarlarida til va nutqning inson kamoloti, maʼnaviy tarbiya hamda jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini chuqur tahlil qilganlar. Ularning qarashlarida notiqlik nafaqat chiroyli soʻzlash mahorati, balki axloqiy yetuklik, ilm-maʼrifat va insoniy fazilatlar bilan uzviy bogʻliq holda talqin etiladi. Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ham notiqlik sanʼati oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Aksincha, zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida fikrni aniq, ravon va taʼsirchan ifodalash qobiliyati shaxsning ijtimoiy faolligi hamda kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, filologiya yoʻnalishida tahsil olayotgan boʻlajak mutaxassislar uchun nutq madaniyati va notiqlik mahoratini egallash kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur



maqolada notiqlik san'atining tarixiy taraqqiyoti, uning Sharq va G'arb sivilizatsiyalaridagi rivojlanish bosqichlari, mashhur notiqalar hamda mutafakkirlarning notiqlikka oid qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy notiqlik an'alarining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va filologiya sohasidagi o'rni yoritiladi.

Notiqlik san'ati tarixida G'arb, ayniqsa, Qadimgi Yunoniston alohida o'rin egallaydi. Ritorika mustaqil ilm va san'at sifatida aynan Yunonistonda shakllanib, keyinchalik butun Yevropa madaniyatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Miloddan avvalgi V–IV asrlarda Afina shahrida demokratik boshqaruv tizimining qaror topishi natijasida xalq majlislari, sud yig'inlari va siyosiy kengashlarda erkin so'zlash imkoniyati yuzaga keldi. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ularning nutq mahorati bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Natijada, notiqlik nafaqat amaliy ehtiyoj, balki maxsus o'rganiladigan fan darajasiga ko'tarildi. Qadimgi Yunonistonda notiqlikning nazariy asoslarini yaratishda sofistlar katta rol o'ynaganlar. Ular orasida Gorgiy eng mashhur notiqalardan biri hisoblanadi. U nutqlarida badiiy tasvir vositalaridan, qofiyadosh iboralardan, o'xshatish va qarama-qarshi ma'noli ifodalardan mahorat bilan foydalangan. Gorgiyning aytishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'zining asarlarida "go'zal" uslubning namunalarini namoyish qilmoqchi bo'ladi.¹ Shuningdek, u so'z inson ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkaza oladigan qudratli vosita ekanligini va notiqning vazifasi faqat ma'lumot berish emas, balki tinglovchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish ekanligini ta'kidlagan. Yunon notiqligining rivojlanishida Lisiy ham alohida o'rin tutadi. U ko'proq sud notiqligi va logografik faoliyati bilan mashhur bo'lgan. Lisiy

¹ Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – B. 205.



nutqlarining asosiy xususiyati sodda, ravon va tabiiy uslubda yozilganidadir. U murakkab iboralardan qochib, fikrni aniq va tushunarli ifodalashga intilgan. Lisiy har bir nutqni uni aytuvchi shaxsning yoshi, kasbi, ijtimoiy mavqei va xarakteriga mos holda tuzishga alohida e'tibor qaratgan. Shu jihatdan uning asarlari qadimgi yunon jamiyatining turli qatlamlari hayotini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Yunoniston notqlik san'atining eng yuksak cho'qqisi esa Demosfen faoliyati bilan bog'liqdir. U miloddan avvalgi 384-yilda Afinada tug'ilgan bo'lib, yoshligidan turli qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Otasidan erta ayrilgan Demosfen merosini talon-toroj qilgan vasiylariga qarshi kurashish jarayonida notqlik san'atini chuqur o'rganishga kirishadi. Dastlab uning nutqidagi duduqlik, ovozining pastligi va talaffuzidagi nuqsonlar omma oldida muvaffaqiyat qozonishiga to'sqinlik qilgan. Biroq u ulkan iroda va matonat bilan o'z kamchiliklarini bartaraf etishga erishadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Demosfen talaffuzini yaxshilash uchun og'ziga mayda toshlar solib mashq qilgan, dengiz shovqini fonida baland ovozda nutq so'zlash orqali ovozini chiniqtirgan. Demosfenning tarixdagi buyukligi uning faqat notqlik mahorati bilan emas, balki siyosiy faoliyati va vatanparvarlik G'oyalari bilan ham belgilanadi. Makedoniya podshohi Filippning Yunoniston mustaqilligiga tahdid solayotgan siyosatiga qarshi u xalqni kurashga da'vat etgan. Shu maqsadda aytilgan mashhur nutqlari tarixda "Filippikalar" nomi bilan tanilgan. Ushbu nutqlarda Demosfen vatandoshlarini birdamlikka, siyosiy hushyorlikka va ozodlik uchun kurashishga chaqirgan. Uning nutqlari kuchli mantiq, ta'sirchan hissiyot va yuksak vatanparvarlik ruhining uyg'unligi bilan ajralib turadi. Qadimgi Yunonistonda shakllangan ritorika an'analari keyinchalik Rim madaniyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Rimda Sitseron va Kvintilian kabi mutafakkirlar yunon notqligi tajribalarini davom ettirib, ritorika nazariyasini yanada boyitdilar. Natijada, G'arb notqlik maktabi mantiqiy dalillash, ishontirish san'ati va omma oldida nutq so'zlash madaniyatining mukammal tizimiga aylandi. G'arb notqlik maktabining shakllanishida demokratik muhit, erkin



fikr almashinuvi va siyosiy hayotning faolligi muhim omil bo'ldi. Gorgiyning badiiy-ta'sirchan uslubi, Lisiyning soddalik va aniqlikka asoslangan notiqqligi hamda Demosfenning vatanparvarlik ruhidagi siyosiy nutqlari G'arb ritorika an'alarining asosini tashkil etdi. Mazkur tajriba keyingi asrlarda notiqlik nazariyasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, bugungi zamonaviy kommunikatsiya madaniyatining shakllanishiga zamin yaratdi.

G'arb notiqlik maktabida ritorika, asosan, siyosiy faoliyat, sud jarayonlari va davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan bo'lsa, Sharqda notiqlik san'ati axloqiy kamolot, ma'naviy tarbiya, til madaniyati va insonning komil shaxs sifatida shakllanishi bilan uzviy aloqada taraqqiy etdi. Shu bois Sharq mutafakkirlari notiqlikni faqatgina ommani ishonirish vositasi sifatida emas, balki insonning ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi fazilat, so'zning esa tarbiyaviy va ma'rifiy qudratini ifodalovchi vosita sifatida baholadilar. Sharq xalqlari madaniyati tarixida nutq madaniyati va notiqlik masalalari qadim zamonlardan boshlab alohida e'tibor markazida bo'lgan. Movarounnahr, Xuroson va boshqa Sharq hududlarida yashab ijod qilgan olimlar, mutafakkirlar va adiblar til, nutq, so'z odobi hamda muloqot madaniyatiga oid qimmatli qarashlarni ilgari surganlar. Sharqda notiqlik san'ati G'arbdagi kabi mustaqil ritorika maktabi shaklida emas, balki falsafa, mantiq, adabiyot, axloq va ma'rifat bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. Shu sababli Sharq mutafakkirlari nutqning tashqi bezagidan ko'ra uning mazmuniga, ma'naviy ahamiyatiga va inson kamolotidagi o'rniga ko'proq e'tibor qaratdilar. Sharq ilm-fani tarixida nutq madaniyati masalalariga murojaat qilgan allomalar orasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud QoshG'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida til va nutq masalalari turli jihatlardan tahlil qilinib, so'zning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini chuqur yoritilgan.



Sharq mutafakkirlari orasida Abu Nasr Forobiy nutq madaniyati va mantiq ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. U til, tafakkur va mantiq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda izohlab bergan. Forobiy fikricha, insonning to‘g‘ri fikrlashi va uni aniq ifoda etishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Olim so‘zlash jarayonida mantiqiy izchillik, fikrning ravonligi va mazmunning aniqligiga alohida e‘tibor qaratadi. Uning qarashlarida notiqlik insonning bilim darajasi va tafakkur madaniyatining amaliy ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, nutq odobi masalalariga bag‘ishlangan eng muhim manbalardan biri Kaykovusning “Qobusnoma” asaridir. Ushbu asarda muallif yosh avlodni odobli, muloyim va mazmunli so‘zlashga undaydi. Kaykovus insonning qadr-qimmatini ko‘p gapirishda emas, balki o‘rinli va foydali so‘z aytishida ekanligini ta‘kidlab, quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Ey farzand, agar har nechakim suxandon bo‘lsang, o‘zingni bilg‘ondan kamroq tutg‘il, to so‘zlash vaqtida nodon va beburd bo‘lib qolmag‘aysan. Ko‘b bilib, oz so‘zlag‘il va kam bilib ko‘p so‘z demag‘il. Nima ichunki, aqlsiz shundoq kishi bo‘ladur - u ko‘b so‘zlar. Deb durlarki, xonushliq salomatlik sababidur, chunki ko‘b so‘zlaguchi oqil kishi bo‘lsa ham, avom uni aqlsiz derlar.”² Asarda keltirilgan pand-nasihatlar bugungi kunda ham nutq madaniyatining muhim mezonlari sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Sharq notiqlik tafakkurining yirik namoyandalaridan biri Yusuf Xos Hojib hisoblanadi. Uning “Qutadg‘u bilig‘” asarida so‘zning qadr-qimmatini, nutqning inson hayotidagi o‘rni va fikrni ixcham ifodalash masalalari keng yoritilgan. Muallif insonni ortiqcha so‘zdan qochishga, qisqa va mazmunli gapirishga chaqiradi. Uning fikricha, dono kishi oz so‘z bilan ko‘p ma‘no ifodalay oladi. Bu qarashlar Sharq notiqlik maktabining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan mazmundorlik va fikrning aniqligini yaqqol namoyon etadi. Sharq ma‘naviy merosida Alisher Navoiyning notiqlik va nutq madaniyatiga doir qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk

² Kaykovus. Qobusnoma -T.: 1986. – B.45



mutafakkir til va soʻzning inson hayotidagi oʻrnini chuqur anglagan holda, nutq odobi masalalariga koʻplab asarlarida murojaat qilgan. Navoiy “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Nazm ul-javohir” kabi asarlarida goʻzal va taʼsirchan nutqning mezonlarini yoritadi. Alisher Navoiy mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan soʻzlash odobi haqida shunday yozadi: “Soʻzni koʻnglungda pishqormaguncha tilga keltirma, hamakim koʻnglungda boʻlsa, tilga surma“ (“Soʻzni koʻnglingda pishitib olmaguncha, soʻzlama, koʻnglingda boʻlgan har qanday fikrni ham ayta berma”).³ Uning fikricha, til insonning eng ulugʻ neʼmatlaridan biri boʻlib, undan oqilona foydalanish zarur. Mutafakkir soʻzning inson qalbiga taʼsir etuvchi kuchini yuksak baholagan va notiqning masʼuliyatini alohida taʼkidlagan. Sharq notiqlik maktabining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda nutqning faqat shakliy jihatlariga emas, balki uning axloqiy va maʼnaviy mazmuniga ham katta eʼtibor berilgan. Sharq allomalari notiqdan avvalo bilimli, odobli, halol va maʼrifatli boʻlishni talab qilganlar. Ularning nazarida soʻzning taʼsir kuchi notiqning shaxsiy fazilatlarini bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu jihatdan Sharq notiqligi insonni komillikka yetaklovchi maʼnaviy vosita sifatida namoyon boʻladi. Yuqoridagilardan koʻrish mumkinki, har ikki sivilizatsiya tajribasini birlashtirib turuvchi umumiy jihat mavjud: ular soʻzni inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining eng muhim vositalaridan biri deb baholaganlar. Shu sababli Sharq va Gʻarbda shakllangan notiqlik anʼanalari bugungi nutq madaniyati va zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarining nazariy hamda amaliy poydevorini tashkil etadi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida Sharq va Gʻarb notiqlik maktablari tomonidan shakllantirilgan nazariy va amaliy tajribalar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Aksincha, globallashuv, axborot almashinuvining jadallashuvi hamda kommunikatsiya vositalarining kengayishi sharoitida notiqlik sanʼati jamiyat

³ Rasulov R., Moʻyidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati. – Toshkent, 2015. – B.8.



hayotining barcha sohalarida muhim omillardan biriga aylandi. Zamonaviy davrda insonning bilim va malakasi bilan bir qatorda o'z fikrini aniq, ravon, mantiqiy va ta'sirchan tarzda ifoda eta bilishi ham uning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Bugungi kunda notiqlik faqat siyosiy yoki sud-huquqiy faoliyat doirasida emas, balki ta'lim, ilm-fan, biznes, diplomatiya, ommaviy axborot vositalari hamda davlat boshqaruvi tizimlarida ham muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, demokratik jamiyat sharoitida jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatish, fuqarolarni ma'lum g'oya va maqsadlar atrofida birlashtirish, ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish hamda muammolarning yechimini tushuntirishda notiqlikning o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan qaralganda, qadimgi yunon ritorikasida shakllangan ishonirish va dalillash tamoyillari bilan Sharq mutafakkirlari ilgari surgan odob, axloq va ma'naviyatga asoslangan nutq madaniyati bugungi kommunikatsiya jarayonlarida o'zaro uyg'unlashib ketganini kuzatish mumkin. Zamonaviy kommunikatsiya nazariyalarida ham nutq faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi, insonlar o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalarida kommunikatsiya, nutq madaniyati va notiqlik fanlarining o'qitilishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Malakali mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi ko'p jihatdan uning nutqiy madaniyati, tinglovchilar bilan muloqot o'rnatish mahorati va auditoriyani ishonira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan hozirgi davrda notiqlik san'ati yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, onlayn konferensiyalar va masofaviy ta'lim tizimlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ham nutqning aniqligi, mantiqiyli va ta'sirchanligi muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi nihoyatda kuchaygan sharoitda auditoriya e'tiborini jalb qilish, uni saqlab qolish hamda kerakli g'oyani yetkazish notiqdan yuqori darajadagi kommunikativ mahoratni talab etadi. Shu



sababli notiqlik san'ati nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyotining zarur amaliy ehtiyojlaridan biri sifatida ham qadrlanmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ona tilining mavqeini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 29-avgustidagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, o'z ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin", - deb ta'kidlaydi.⁴ Bu qarash notiqlik san'atining nafaqat individual muvaffaqiyat, balki milliy taraqqiyot uchun ham zarur ekanligini ko'rsatadi. Natijada, notiqlik san'ati tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan boy nazariy va amaliy tajribaga tayangan holda bugungi kunda ham jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Shuning uchun notiqlik merosini o'rganish, uni zamonaviy kommunikatsiya talablariga mos ravishda rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb ilmiy hamda amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
2. Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati (O'quv qo'llanma). – Toshkent: TDPU, 2015.
3. Israil M.I., Tashmuxeimedova L.I. Notiqlik san'ati (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Noshir, 2019.
4. Ahmedov A. Notiqlik san'ati. – Toshkent, 1967.

⁴ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997.



5. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova I. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997.
7. Kaykovus. Qobusnoma -Toshkent, 1986.
8. Suyunov O.J., Tashmatov Sh.O‘. «Notiqlik san’ati va nutq madaniyati» fanidan ta’lim texnologiyasi. – Samarqand, 2010.